UDK: 611.91+616-053.5 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a178**

7-12 YOSHDAGI BOLALARDA YUZNING FIZIONOMIK BALANDLIGI O‘SISH DINAMIKASI

ДИНАМИКА РОСТА ФИЗИОНОМИЧЕСКОЙ ВЫСОТЫ ЛИЦА У ДЕТЕЙ 7-12 ЛЕТ

GROWTH DYNAMICS OF THE PHYSIOGNOMIC HEIGHT OF THE FACE IN CHILDREN AGED 7-12 YEARS

Ulug‘bekovaGulrux Jo‘rayevna[1], Adhamov Shohjahon Abdullajon o‘g‘li [2]

[1]Ulug‘bekova Gulrux Jo‘rayevna – Andijon davlat tibbiyot instituti Anatomiya va klinik anatomiya kafedrasi dotsenti, t.f.n.

[2]Adhamov Shohjahon Abdullajon o‘g‘li – Andijon davlat tibbiyot instituti pediatriya fakulteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya

Maqolada 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o‘sish dinamikasini tahlil qilish maqsadida Andijon viloyati Izboskan tumanida yashovchi o‘gil va qiz bolalar orasida olib borilgan kraniometrik tadqiqot natijalari bayon qilingan. Xususan, ushbu ilmiy maqolada kraniometriyaning maqsad va vazifalari, kraniometrik tadqiqotlarning bugungi davrdagi ahamiyati, olib borilgan tadqiqot natijalari, uning tahlili, 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan har bir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalardagi yuzning fizionomik balandligi ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Аннотация

В статье описаны результаты краниометрического исследования, проведенного среди мальчиков и девочек, проживающих в Избосканском районе Андижанской области, с целью анализа динамики роста физиономической высоты лица у детей в возрасте 7-12 лет. В частности, в данной научной статье представлены цели и задачи краниометрии, значение краниометрических исследований на сегодняшний день, результаты проведенных исследований, их анализ, показатели физиономической высоты лица у мальчиков и девочек каждого возраста от 7 до 12 лет.

Abstract

The article describes the results of a craniometric study conducted among boys and girls living in Izboskan district of Andijan region in order to analyze the growth dynamics of the physiognomic height of the face in children aged 7-12 years. In particular, this scientific article presents the goals and tasks of craniometry, the importance of craniometric research today, the results of the conducted research, its analysis, the indicators of the physiognomic height of the face in boys and girls of every age from 7 to 12 years.

Kalit so‘zlar : *7-12 yoshdagi bolalar, kraniometrik o‘lchashlar, yuz sohasi, yuzning fizionomik balandligi, o‘sish ko‘rsatkichlari.*

Ключевые слова: *дети 7-12 лет, краниометрические измерения, площадь лица, физиономическая высота лица, ростовые показатели.*

Key words: *children aged 7-12, craniometric measurements, facial area, physiognomic height of the face, growth indicators.*

KIRISH

Ta’kidlash joizki, antropometrik ko‘rsatkichlar salomatlik holatini, xususan, o‘sish va rivojlanish jarayonlarini tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda kraniometrik ko‘rsatkichlar ham yoshga bog‘liq ravishda o‘sish va rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi muhim manbadir. 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligini yoshga bog‘liq ravishda o‘sish dinamikasini kuzatish va tahlil qilish maqsadida Andijon viloyatining Izboskan tumanida yashovchi bolalarda kraniometrik o‘lchashlar amalga oshirildi. Taqiqot uchun obyekt sifatida Izboskan tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 41-umumta’lim maktabi olindi. Taqiqot davomida ushbu ta’lim muassasasining 1-6-sinflarida ta’lim olayotgan o‘g‘il va qiz bolalar olindi. Tadqiqot davomida 165 nafar o‘quvchilarda kraniometrik o‘lchashlar amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kraniometriyaning maqsadi faqatgina kallaning mutloq o‘lchamlarini sonlar bilan izohlash bo‘libgina qolmay, balki kalla qismlarining o‘lchamlari orasidagi nisbatni aniqlash, kallaning umumiy shakliga yoki uning ma’lum bir qismlariga matematik aniq izoh berish va ushbu tahlillarni son o‘lchamlarida izohlashdan iborat (P.Broka, 1879). Olingan natijalar postnatal ontogenezda kichik maktab yoshidagi bolalar kallasi kraniometrik ko‘rsatkichlarining yoshga oid xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarimizni to‘ldiradi. Olingan kraniometrik ko‘rsatkichlarni yuz-jag‘ rekonstruktiv


plastik jarroxligida, sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida, jismoniy rivojlanishning yangi standartlarini ishlab chiqishda, yuz-jag‘ soxasi protezlarini ishlab chiqarish va yuz-jag‘ soxasini protezlashda, bosh kiyimlarini ishlab chiqarishda yangi standartlarni yaratish va odamlar orasidagi irqiy, etnik va populyatsion tafovutlarni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalardan olingan kraniometrik ko‘rsatkichlardan odam anatomiyasi, topografik anatomiya, jarrohlik stomatologiyasi, ortopedik stomatologiya, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, pediatriya, sud tibbiyoti kafedralarida olib boriladigan o‘quv jarayonlarida, shuningdek amaliy mashg‘ulot va ma’ruza materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Postnatal ontogenez davrida bolaning yuz qismi proporsiyasi tish-jag‘ apparati hisobiga yuz balandligining mutloq va nisbiy kattalashuvi qonuniyatlari bilan uzviy bog‘liq. 5-6 yoshlardan keyin bolaning yuz qismini shakllanishi va uning o‘lchamlarini o‘zgarishi individual nasliy mexanizm asosida boshqariladi (V.V. Kupriyanov, G.V. Stovichek, 1988).

Yuzning fizionomik balandligi – bu trixiondan gnationgacha bo‘lgan to‘g‘ri chiziqli oraliqdir. Yuzning o‘lchami va umumiy shakli yoshga, jinsga, irqiy kelib chiqishga, organizmning konstitutsional va individual xususiyatlariga bog‘liq. Organizmning individual xususiyatlari nasliy omillar ta’sirida shakllanadi, shuningdek jismoniy (patologik) va ijtimoiy xolatiga (kasbi, ovqatlanishi, nutqi) bog‘liq bo‘ladi (V.V. Kupriyanov, G.V. Stovichek, 1988).

Ushbu ko‘rsatkichni shtangensirkul yordamida o‘lchadik. (1-rasm)

1-rasm. Yuzning fizionomik balandligini o‘lchash sohasi



TAHLIL VA NATIJALAR

Yuzning fizionomik balandligi ko‘rsatkichlarini o‘lchashda Speranskiy V.S., Zaychenko A.I. (1980, 1988) va Avtandilov G.G. (1990) usullaridan foydalanildi. Ko‘rsatkichlarni o‘lchash jarayoni tik turgan holatda amalga oshirildi. Kraniometrik ko‘rsatkichlarni o‘lchash jarayonida Marthin R. (1928) tomonidan tavsiya etilgan kraniometrik nuqtalardan foydalanildi.

Kraniometrik tadqiqot natijalarining korsatishicha, yuzning fizionomik balandligi o‘g‘il bolalarda 7 yoshda 15,5±0,20 smni tashkil etsa, 8 yoshda 16,2±0,24 smga, 9 yoshda 16,6±0,28 smga, 10 yoshda 17,0±0,26 smga, 11 yoshda 17,4±0,22 smga va 12 yoshda esa 17,5±0,28 smgacha kattalashadi. 7-10 yoshli o‘g‘il bolalarda ushbu ko‘rsatkichning intensiv o‘sishi kuzatiladi. Qiz bolalarda yuzning fizionomik balandligi 7-10 yoshlar orasida 15,2±0,15sm dan 16,4±0,16 smga oshadi. 11-12 yoshda esa, o‘sish nisbatan sustlashadi (17,1±0,26 sm dan 17,2±0,18 smga oshadi).

1-jadval. Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi (7-12 yosh) bolalarda yuzning fizionomik balandligi o‘sish dinamikasi (X±m, sm da)

Yoshi	7	8	9	10	11	12
O‘g‘il	15,5±0,20	16,2±0,24	16,6±0,28	17,0±0,26	17,4±0,22	17,5±0,28
Qiz	15,2±0,15	16,0±0,22	16,2±0,23	16,4±0,16	17,1±0,26	17,2±0,18

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan xulosa qilish mumkinki, Izboskan tumanida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi parametrlari yoshga mos ravishda intensiv o‘sib boradi. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarda yuzning fizionomik balandligining eng jadal o‘sishi o‘g‘il bolalarda ham, qiz bolalarda ham 7-10 yoshga to‘g‘ri kelishi tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Автандилов Г. Г. Медицинская морфометрия: руководство / Г. Г. Автандилов. М.: Медицина, 1992. - 380 с.

2.Автандилов Г. Г. Медицинская морфометрия. - М.: Медицина, 1990. - 384 с.

3.Алексеев В.П. Остеометрия. - М.: Наука, 1966. - 250 с.

4.Алексеев В.П., Дебец Г.Ф. Краниометрия. Методика антропологических исследований - М.: Наука, 1964. - 127 с.

5. Владимирова Э.Д. Антропология. // Уч. метод. пособие. - Самара: СамМУ, 1999 - 74 с.

6.Звягин В.Н. Методика краниоскопической диагностики пола человека. – Судебно-медицинская экспертиза. – 1983. т.26, – №3. – С. 15-17.

7.Куприянов В.В., Стовичек Г.В. Лицо человека: анатомия, мимика. - М.: Медицина, 1988. - с. 13-22.

8.Никитюк Б.А., Чтецов В.П. Морфология человека. - М.: Изд. МГУ, 1990. - 337 с.

9.Синельников Р.Д. , Синельников Я.Р. Атлас анатомии человека 1 том. - М.: Медицина, 1996. - 343 с.

10.Тишевской И.А. Возрастная и конституциональная антропология. // Учеб. пособие. – Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2000. – 56 с.

11. Shokirov X.U. Andijon viloyati Andijon shahri sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko‘rsatkichlari // Magistrlik dissertatsiyasi. Andijon-2017.

12. Атахонов А.А., Хатамов А.И., Улугбекова Г.Ж. Андижон вилояти Асака тумани шароитида яшовчи мактаб ёшидаги болаларда бошнинг юз кисмини краниометрик кўрсаткичлари. O‘zbekiston terapiya axborotnomasi.- 2015. № 3, 84-86 b.

13. Атаханов А.А. Андижон вилояти Асака тумани шароитида яшовчи ўрта мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари. /*Диссертация*. Андижан-2015.

14. Раимжанов Р.Р. Андижон вилояти Андижон тумани шароитида яшовчи кичик мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари. /*Диссертация*.Андижан, 2014.

15.https://elibrary.ru

16.https://www.ziyonet.uz

17.https://uz.m.wikipedia.org

18.https://www.ziyo.uz

19. https://www.dissercat.com

20. https://www.tib.uz